

**RAQAMLI JAMIYATDA TRANSFORMATSION JARAYONLARNI  
O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

*Teshayeva Gulchehra Murodovna*

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti*

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, raqamli jamiyat, raqamli iqtisodiyotelektron biznes, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada raqamli jamiyatga transformatsiyalashuvning turli davlatlarda turli olimlar tomonidan berilgan qarashlar, fikrlar yoritib berilgan. Jamiyatni raqamlashtirish orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar orqali isloh qilish va bir qancha vazifalar yoritib berilgan.*

Bugungi kunda jahonda postindustrial yoki supermadernistik jamiyatning axborot kommunikatsion texnologiyalardan tizimli foydalanishga asoslangan yoki «raqamli jamiyat» deb nomlanuvchi shakliga transformatsiyalashuv jarayonlari jadallashmoqda. Raqamli jamiyat muayyan mamlakat uchun Raqamli ijtimoiy tizimning, evolyutsion rivojlanishining mantiqiy davomi hamda davlat, korxonalar va aholini to'liq qamrab olgan innovatsion jamiyatni shakllantirish imkoniyatiga aylanmoqda.

Ko'plab xorijiy tadqiqotchilar «Raqamli jamiyat» tushunchasining mohiyatini «axborotlashgan jamiyat», «bilimlar jamiyati», «kreativ jamiyat», «internet-jamiyat», «tarmoq jamiyati», «elektron jamiyat», «yangi jamiyat», «supermadernistik jamiyat» kabi tushunchalar bilan tavsiflashadi. Ushbu atamalarning barchasi nisbatan kengroq tushuncha bo'lgan «Raqamli jamiyat» alohida jarayonlarini ifodalaydi.

Raqamli jamiyat o'zining sifat aniqligini tavsiflovchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ham o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi tushunchadir. Raqamli jamiyatni umumlashtiruvchi konsepsiya sifatida qabul qilinishi kommunikatsiya

tarmoqlari axborotlarini ishlab chiqarishning navbatdagi omili sifatida, AKTni esa intensiv iqtisodiy o'sishning yangi manbai bo'lgan nomoddiy aktiv sifatida o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra «Raqamli jamiyat» konsepsiyasining shakllanishi amerikalik olim N.Negropontega bog'liq. N.Negropontening fikricha, raqamli jamiyat yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida raqamli munosabatlar, shuningdek, raqamli mahsulotlarning fizik vaznga ega emasligi va ularning hajmi axborot o'lchami bilan almashtirilganligi, mahsulot egallagan maydonning bir necha baravar kichik ekanligi elektron tovarlarni ishlab chiqarish uchun resurs xarajatlarining past ekanligi, internet tarmog'i orqali mahsulotlarning global darajada juda tez harakatlanishi kabi afzalliklarga ega.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra esa «Raqamli jamiyat» atamasi birinchi bo'lib 1994 yilda kanadalik olim Don Tapskottning «Raqamli jamiyat: tarmoqlashgan intellekt sharoitidagi istiqbollar va xavflar» nomli kitobida keltirilgan. D.Tapskott «Rivojlangan mamlakatlar xususiyatlarini ta'riflab, ob'yektlarni tasvirlashning raqamli shaklini, axborot texnologiyalarining biznes jarayonlariga, davlat boshqaruv tizimiga ta'sirini alohida ta'kidlaydi hamda raqamli jamiyatni axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan jamiyat», - deb ta'riflaydi.

D.Tapskott birinchi bo'lib, yangi texnologiyalar va raqamli biznes strategiyalari qanday qilib biznes jarayonlarini o'zgartirish bilan birgalikda turli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish, korxonaning yangi tuzilmasini shakllantirish va samarali biznes qoidalarini belgilash usuli bo'lishini aniqladi. Raqamlashtirishning eng muhim natijalaridan biri sifatida D.Tapskott «Firmaning institutsional nazariyasiga asoslanib, tranzaksiya xarajatlarining, jumladan, ma'lumot izlash va shartnoma tuzish xarajatlarining sezilarli kamayishi va natijada mol yetkazib bilan iste'molchi o'rtasida vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatiladigan biznesning yangi shakllarining paydo bo'lish imkoniyatlarini ko'rsatadi».

Raqamli jamiyatni tadqiq etishga qaratilgan ishlar ko'p bo'lishiga qaramasdan,

raqamli jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida o'zida nimani ifoda etishi to'g'risida umumiy konsepsiya mavjud emas. Ko'plab mutaxassislar «Raqamli jamiyat» tushunchasini aniq ta'riflamasdan, uni «murakkab tuzilma» sifatida ifodalashadi yoki unga «texnologiyalar birikmasi» sifatida qarashadi. Bir qator ilmiy ishlarda «raqamli jamiyat»ning «raqamli texnologiyalarga asoslangan jamiyat» sifatida tavsiflanuvchi turli variantlardagi ta'riflari keltirilgan.

1999 yilda N.Leyn raqamli jamiyatning mazmuni bo'yicha ilmiy ta'rifni birinchi bo'lib ishlab chiqdi. Unga kura, raqamli jamiyat - bu internet tarmog'idagi kompyuter va kommunikatsion texnologiyalarning yaqinlashuvi hamda elektron tijoratning rivojlanishini va tashkiliy tuzilmalardagi keng ko'lamlı o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi axborot va texnologiyalar oqimidir.

T.Mezenburg o'z tadqiqotlarida «Raqamli jamiyatning statistik jihatdan baholash mumkin bo'lgan uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi:

- qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma (qurilmaviy va dasturiy ta'minot, telekommunikatsiyalar, tarmoqlar va boshqalar);
- elektron biznes (kompyuter tarmoqlari orqali xo'jalik faoliyati va har qanday biznes jarayonlarini olib borish);
- elektron tijorat (tovarlarni internet orqali tarqatish va sotish)».

M.Nikrem va boshqalar keltirgan ta'rifga ko'ra, raqamli jamiyat - bu «Raqamli resurslar» hisobiga amalga oshirilgan ishlab chiqarishning umumiy iqtisodiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushidir. Ushbu raqamli resurslar raqamli malakalarni, raqamli uskunalarni (aksessuar va butlovchi qismlar, dasturiy ta'minot va aloqa uskunalari), ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan oraliq raqamli mahsulot va xizmatlarni o'z ichiga oladi».

Yana bir tadqiqotchi M.Rouzning ta'kidlashicha esa: «Raqamli jamiyat - bu axborot-kommunikatsion texnologiyalar hisobiga amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatning xalqaro tarmog'i. Soddaroq qilib, ushbu tushunchani raqamli texnologiyalarga asoslangan jamiyat deb ham ta'riflash mumkin».

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mutaxassislari tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, «Raqamli jamiyat tegishli texnologiyalar yordamida internet

foydalanuvchilari tomonidan amalga oshiriladigan bir kator iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat shakllari va umumiy foydalanishdagi texnologiyalarning birikmasini ifodalaydi. Raqamli jamiyat raqamli texnologiyalar, bog'lanish qurilmalari, axborot tizimlari va ularning funksiyalari qo'llaniladigan infratuzilmadan iborat».

«Raqamli iqtisodiyot» tushunchasining kelib chiqish tarixini o'rganadigan bo'lsak raqamli jamiyat juda uzoq bo'lmagan vaktida, 1995 yili Massachusets universitetida faoliyat yurituvchi amerikalik olim Nikolas Negreonte tomonidan aniqlangan. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv rivojlanishi orqali eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkinligini aytib o'tgan. Yuqorida takidlaganimizdek, hozirgi vaqtga kelib, raqamli jamiyat nazariyasi tulaligicha hali shakllanmagan va kupchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda.

«Raqamli» davlatlar - ya'ni raqamli jamiyat yuksak rivojlangan davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvesiya va Shvesariya hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya hamda Gongkong raqamli jamiyat rivojlangan davlatlar 10 taligiga kiradi. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganib chiqish va bular asosida harakatlanish ko'zlangan maqsadga tezroq erishishga yordam beradi.

Raqamli jamiyatning rivojlanganlik darajasini bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichlardan biri elektron hukumatdir.

O'zbekistondagi elektron hukumatning rivojlanganlik darajasi past emas, shu bilan birga yuqori ham deb bo'lmaydi. Raqamli jamiyatning asoschisi ma'lum ma'noda bizning ajdodlarimiz bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ulug' matematik Muhammad Xorazmiy bundan 1200 yil burun zamonaviy uyali hisoblash tizimini yaratish va muammolarni yechishda algoritmik, ya'ni tizimli yondashish orqali raqamli jamiyatning o'ziga xos tamal toshini qo'yib bergan edi. Bu bilan nafaqat ilm-fan, ta'limda, balki kundalik turmush, ayniqsa, jamiyatda hisob-kitobni tezroq bajarish imkoni tug'ilgan. Ayni paytda O'zbekistonda raqamli jamiyatni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha, biroq rivojlanish bosqichi juda sekin bormoqda. Buni bartaraf etish maqsadida yurtimizda bir qancha

islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek: «Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur. Bu rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda».

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-son qarori.
2. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
3. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.
4. Xoshimova, D., & Parpieva, R. (2020). Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar,
5. G.M.Teshaeva//Формирование в новом Узбекистане цифрового общества//Oriental journal of technology and engineering 2024.  
<https://supportscience.uz/index.php/ojte/article/view/1021>
6. G.M.Teshaeva //Man in the digital society//European international journal of multidisciplinary research and management studies.  
<https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/1801>
7. Waterton, E. (2010). The advent of digital technologies and the idea of community. *Museum Management and Curatorship*, 25(1), 5-11.
8. Hilbert, M. (2022). Digital technology and social change: the digital transformation of society from a historical perspective. *Dialogues in clinical neuroscience*.